

O'ZBEKISTON SSR FANLAR AKADEMIYASI TASHKIL ETILISHI VA FAOLIYATI

Hasanova Ismigul Mirxodi qizi  
Milliy Universiteti tarix fakulteti  
1kurs magistr

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasining tashkil etilishi va undagi asosiy bosqichlar, akademianing mamlakatimizda ilm-fan rivojida tutgan o'rni, akademianing shaxsiy tarkibi va faxriy akademiklari hamda Tarix instituti haqida ma'lumotlar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** Fanlar Akademiyasi, ilm-fan rivoji, O'z FAN, Fanlar Komiteti,

Tarix instituti, Fanlar Akademiyasi Prezidenti, II jahon urushi ta'siri, faxriy akademiklar, ilmiy tadqiqot, mustaqillik yillardagi o'zgarishlar .

Hammaga ma'lumki, Fanlar Akademiyasi o'lkamizning eng yirik ilmiy tadqiqot muassasidir. Fanlar Akademiyasi tarixi bevosita 1918-yilda tashkil etilgan Turkiston davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy Universiteti) bilan bog'liqdir. Akademiyani tashkil etish uchun dastlabki harakatlar 30-yillardan boshlanadi. 1932-yilda Leningradda bo'lib o'tgan konferensiyada Butunittifoq FA Ishlab chiqarish kuchlarini o'rganish Kengashi "ilmiy tadqiqot muassalari, kutubxona jamg'armalari, yuqori malakali mutaxassislar sonini hisobga olib, O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasini tashkil etish to'g'risidagi masala" qo'yilishini ma'qullaydi. 1932-yilning oktabr oyiga kelganda esa O'zbekistondagi ilmiy tadqiqot muassasalariga rahbarlik qiluvchi Respublika Komiteti tashkil qilindi. Komitet zimmasiga ilmiy tadqiqot muassalari ishini rejalashtirish va o'zaro biriktirish, ilmiy tadqiqotlarning asosiy soha va yo'nalishlarini belgilash yuklatilgan edi. Fanlar akademiyasi dastlab Markazi ijro komitetining bir bo'limi sifatida tashkil topagan bo'lsa ham Fan komiteti o'lkamizdag'i asosiy nazariy va ilmiy tadqiqot bilan shug'ulanuvchi dastlabki bolim edi. Ularning oldida muhim vazifa turar, ya'ni O'zbekistonda ilmiy tadqiqot ishlarini jadallashtirish edi. Bundan, albatta, mustamlakachi mamuriyat ham manfaatdor edi. Keyingi bosqichda Fanlar Komiteti SSSR FAning O'zbekiston filialiga aylantirildi. Bu voqeal 1940-yilning 9-yanvar sanasiga to'g'ri keladi.

Tarkibiga dastlab geologiya, tarix, til va adabiyot, suv xo'jaligi muammolari, botanika, kimyo ilmiy tekshirish institutlari, tuproqshunoslik, zoologiya, fizika-matematika fanlari sektorlari, Toshkent Astronomiya rasadxonasi va uning huzuridagi kitob kenglik stansiyasi, iqtisodiy tadqiqotlar hamda kartografiya byurolari kirgan. Asosiy vazifasi respublikada fanning turli sohalarini taraqqiy ettirishdan iborat bo'lgan. Tashkil etilgan yili O'zbekistonda 70 ga yaqin ilmiy tashkilot bo'lib, ularga rahbarlik qilish O'zFAN zimmasiga yuklatilgan.

Bu davrga kelib II jahon urushining boshlanishi SSSR FA O'zbekiston filialiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Urushning ijobiy va salbiy ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Bir

tomondan, aholining ziyoli qatlami va olimlarning frontga va front orti ishlariga jalgan etilishi ilm-fanga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ammo shunga qaramasdan, 1941-1945-yillarda tabiiy fanlar sohasida 43ta nomzodlik va 8ta doktorlik ishlari, ijtimoiy fanlarda esa 40ta nomzodlik va 4ta doktorlik dissertatsiyalari yoqlandi. Ikkinci tomondan, SSSRning fashistlar tomonidan egallanishi ehtimoli bo'lgan hududlaridan zavod-fabrikalar bilan bir qatorda 19ta oliy o'quv yurtining ko'chirib keltirilishi keyingi yillarda fan taraqqiyotiga qo'shilgan muhim hissa bo'ldi.

II jahon urushi yillari O'zFAN ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini Respublikada tabiiy boyliklar va resurslarni qidirib topish va ulardan mudofaa maqsadlarida foydalanishga qaratdi. Shuningdek, respublikada og'ir sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlantirish vazifalarini hal etish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirdi. Natijada, O'zbekistonda fanning ochilishi uchun yetarli darajada ilmiy va ilmiy- texnika baza vujudga keldi. Ana shunday sharoitda 1943-yil 27-sentabrda "O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasini tashkil etish to'g'risida" qaror qabul qilindi. Akademianing tantanali ochilishi esa shu yilning 4-noyabriga to'g'ri keldi. Akademiya tuzilishi arafasida respublikda 19 ta ilmiy tadqiqot instituti, 23 ta ilmiy stansiya, 11 ta muzey, 6 ta ilmiy muassasalar mavjud edi. Fanlar Akademiyasining ilk tarkibiga 11 nafar haqiqiy a'zolar (akademiklar), 18ta muxbir a'zolar kirdi. Shundan 21tasi tabiiy fanlar , 8tasi ijtimoiy fan soha vakillari edi.

O'zbekiston SSR S Fanlar Akademiyasi birinchi prezidenti etib, akademiya tadqiqotlari yo'nalishlarining shakllanishi va rivojlanishining dastlabki bosqichida muhim rol o'ynagan yirik olim – matematik va fan tashkilotchisi akademik Toshmuhammad Qori Niyoziy (1896 – 1970-yy.) saylandi. Keyingi yillarda Akademianing ilmiy va moddiy-texnik salohiyatini rivojlanishga turli yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidentlari etib saylangan mamlakatimizning olim-akademiklari salmoqli hissa qo'shdilar. Ular: geolog Habib Muhammedovich Abdullaev (1912-1962-yy.), mamlakatimizda metallogeniya va petrografiya ilmiy maktabining asoschisi, jahon geologiya fani, shuningdek, ilmiy mavzular shakllanishi va akademianing kadrlar salohiyatini mustahkamlashga o'z hissasini qo'shgan, Toshkentda Talabalar shaharchasini bunyod etish tashabbusi bilan chiqqan; fizik Ubay Arifovich Arifov (1909 – 1976-yy.) akademiya tarkibida fizika sohasiga tegishli ketma-ket tashkil etilgan uchta institut – Fizika-texnika, Yadro fizikasi va Elektronika institutlari asoschisi va rahbari, mamlakatimizdagi fizik elektronika bo'yicha ilmiy maktab va «Geliotexnika» Xalqaro ilmiy jurnali asoschisi (1965-y.); ximik Obid Sodiqovich Sodiqov (1913 – 1987-yy.) bioorganika kimyosi yo'nalishi va maktabi hamda shu nomdagi institut asoschisi va rahbari. O.S.Sodiqov bir necha marta saylanib, uzoq yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti sifatida faoliyat yuritgan (1966 – 1982-yy.), mavzular, kadrlar tarkibi, budgetdan tashqari moliyalashtirish va Akademiya moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga katta hissa qo'shdi va Akademiklar shaharchasidagi ko'plab ilmiy tadqiqot muassasalari (ITM) ning qurilishini tashkil etdi. O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasining shaxsiy tarkibiga nazar tashlaydigan bo'lsak, FAning faxriy akademiklari 10ta bo'lgan. Ular quyidagilar:

1. Ayniy Sadreddin Saidmurodovich (1878-1954) 1943-yilda saylangan.
2. Бертелс Евгений Эдуардович (1890-1957) 1956-yil saylangan.
3. Вавилов Сергей Иванович (1891-1951) 1947-yil saylangan.
4. Курчатов Игорь Васильевич (1903-1960) 1956-yil saylangan.
5. Murodov Usta Shirin (1880-1957) 1943-yilda saylangan.
6. Musayev Usta Yusuf Ali Musayevich (1870-1947) 1943-yilda saylangan.
7. Скрябин Константин Иванович (1878-1972) 1963-yil saylangan.
8. Толстов Сергей Павлович (1907-1976) 1956-yil saylangan.
9. Александр Анатолий Петрович (1903-1994) 1978-yil saylangan.
10. Faxriddinov Zaynudin (1922-2000) 1979-yil saylangan.

O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi tarkibiga bir qator ilmiy – tadqiqot institutlari va muassasalar kirgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi FA Tarix instituti – o'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixini o'rjanuvchi, tarix sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi , yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlovchi tadqiqot muassasasi. Akademiya bilan bir paytda SSSR Fanlar Akademiyasi O'zbekiston filiali Til , adabiyot va tarix instituti negizida tashkil topgan. Dastlabki paytda institutda sovet jamiyati tarixi, yangi tarix, qadimgi va o'rta asrlar tarixi, arxeologiya, etnografiya hamda huquq bo'limgari mavjud bo'lgan. O'tgan yillar mobaynida mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy hayoti, milliy – ozodlik harakatlari tarixini o'rghanishda H.Ziyoyevning xizmatlari katta bo'ldi. R.X. Aminova esa ijtimoiy- iqtisodiy jarayonlar tahlilini o'rgangan.

Mustaqillik yillarda akademiya faoliyatini yana-da takomillashtirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi, yangi qarorlar qabul qilindi. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 3-apreldagi 109-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Nizomi tasdiqlandi. Unga ko'ra, "Fanlar Akademiyasi fan va texnika, madaniyat va ma'rifat sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshiruvchi, o'z-o'zini boshqaruvchi ilmiy tashkilot hisoblanadi". Fanlar Akademiyasi tarkibiga fanlar bo'limgari, mintaqaviy bo'limgar, ilmiy-ishlab chiqarish bo'linmalari, ilmiy-tadqiqot institutlari, muzeylar, laboratoriylar, observatoriylar, stansiyalar, botanika bog'lari, konstrukturlik byurolari, tajriba –sinov zavodlari, "Fan" nashriyoti bosmaxona, Fundamental kutubxona, arxivlar , jurnallar tahririylari, qurilish, madaniy-ma'rifiy, sog'lomlashtirish va boshqa ilmiy hamda ilmiy-yordamchi bo'linmalar kiradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1."Узбекистон Республикаси Фанлар Академияси 50 йил" Тошкент УзР ФА "ФАН" нашриети 1993-йил
- 2." Узбекистон Республикаси Фанлар Академияси ташкилий фаолияти" А.Ф Исмоилов
3. Академия наук Узбекской ССР. Справочник. –Т." ФАН" 1983
4. Lex.uz online, Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 3-apreldagi 109-sun qarori "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Nizomi"
5. fban.natlib.uz